



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 29-oktabr

576-11-0-F/25

Farg‘ona viloyati hokimligi

Viloyat hududida 2025-2026-yillar kuz-qish mavsumini boshlash haqida

Viloyat hududidagi markazlashgan isitish qozonxonalarini mavsumga tayyorgarligini sinash, ishga tushirish hamda 2025-2026-yillar kuz-qish mavsumini boshlash maqsadida,

1. Hidrometeorologiya xizmati agentligi Farg‘ona viloyati gidrometeorologiya markazining 2025-yil 27-oktyabrdagi 310-sonli xati va Sog‘liqni saqlash boshqarmasining 2025-yil 25-oktyabrdagi 03-05/449-sonli xatini inobatga olib, xalq xo‘jaligi korxonalari va ijtimoiy soha muassasalari uchun sinov isitish ishlari 2025-yil 29-oktyabr kunidan boshlansin.

2. Turar joylar, korxonalar, muassasalar va ijtimoiy inshootlarda isitish mavsumining boshlanishi 2025-yil 29-oktyabr kunidan belgilansin.

3. Farg‘ona viloyati hokimining o‘rinbosari X.Dolimov, “Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ (Saydaliyev), “Hududgaz Farg‘ona” gaz ta‘minoti filiali (Abdumajidov)ga sinov isitish ishlari boshlanishi munosabati bilan viloyat “Issiqlik manbai” ICHDB, shaharlardagi issiqlik korxonalari va boshqa viloyat korxonalarini elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan belgilangan parametrlarda ta‘minlab berish chora-tadbirlarini ko‘rish vazifasi topshirilsin. Bunda viloyatdagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmagan obyektlarga tabiiy gaz yetkazib berilishini to‘xtatish hamda boshqa muqobil yonilg‘i turlaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilsin.

4. Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev), Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi (Dolimov), Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (Pirimqulov), Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi (Boymatov), Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi (Xakimov), Madaniyat boshqarmasi (Tojiboyev), shahar va tuman hokimliklari har bir muassasalarda kuz-qish mavsumi davomida yaratilgan ko‘mir zaxirasini sifatli saqlanishi hamda havo haroratini inobatga olgan holda ko‘mir, ko‘mir

briketi, tabiiy gaz va elektr energiyasidan oqilona foydalanilishini doimiy nazoratga olib borsin.

5. "O'zenergoinspeksiya" Farg'ona hududiy inspeksiyasi (Temirov), Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining Farg'ona hududiy bo'limi (Sobirov)ga kuz-qish mavsumida iste'molchilarga belgilangan

miqdorda elektr energiyasi, tabiiy va suyultirilgan gaz, ko'mir yoqilg'isi yetkazib berilishini nazorat qilish, tarmoqlarda noqonuniy foydalanuvchilari aniqlash va ularga nisbatan belgilangan tartibda keskin choralar ko'rish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Farg'ona viloyati hokimining o'rinbosari X.Dolimov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



X. Bozarov